



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 6-SON

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Sultonov Husan

XVIII–XIX ASR XORIJIY MANBALARIDA XORAZM SHAHARLARINING TAVSIFI6-10

Egamberganova Zulayxo

XORAZM O'ZBEKLARI OILAVIY MAROSIMLARINING DINIY VA MILLIY QADRIYATLAR
ASOSIDAGI ETNOMADANIY TALQINI 11-14

Rajabova Surayyo

XORAZM VOHASI ANTIK DAVR XO'JALIK HAYOTINING TARIXIY REKONSTRUKSIYASI
MASALALARI 15-18

Ro'zmetov Jahongir

XORAZM SAVDOGARLARINING O'RTA ASRLARDA DASHT KO'CHMANCHILARI BILAN
ALOQALARI: ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR TAHLILI 19-23

Yuldashev Suhrobjon

NIKOLAY IVANOVICH VAVILOVNING XORAZM EKSPEDITSIYASI: O'SIMLIK GENETIK
RESURSLARINI O'RGANISH TARIXI VA ILMIY AHAMIYATI 24-33

Mavlonova Mohinur

MA'MUNIYLAR DAVRIDA XORAZM IJTIMOY HAYOTI, URF-ODATLARI VA
MADANIYATI 34-38

Ozodova Go'zalxon

ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM VA TURK XOQONLIGI MUNOSABATLARI
TARIXSHUNOSLIGI 39-44

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

INGLIZ YURIDIK TERMINLARINING O'ZBEK TILIGA O'ZLASHISHI: LEKSIK-SEMANTIK VA
TIPOLOGIK TAHLIL 45-49

YURIDIK FANLAR

Xujabekov Umidjon, Xujanova Munisa

STARTAPLAR VA VENCHUR KAPITAL: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI 50-55

Xursanova Fotima

ENTERPRISE UZBEKISTAN AND THE TRANSPLANTATION OF ENGLISH CONTRACT LAW:
A NEW FRONTIER FOR COMMON LAW IN CENTRAL ASIA 56-63

TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES*Article / Original Paper***XVIII–XIX ASR XORIJIY MANBALARIDA XORAZM SHAHARLARINING TAVSIFI****Sultonov Husan**

Ma'mun universiteti NTM "Tarix" ta'lim yo'nalishi

1-bosqich magistratura talabasi

E-mail: xusanboysultonov7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVIII–XIX asrlarda Xorazm shaharlari haqida xorijiy, xususan rus va venger manbalarida keltirilgan tarixiy-etnografik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan o'sha davr sayyohlari, harbiylari va tadqiqotchilarining asarlariga tayangan holda Xiva xonligi hududidagi shaharlarning joylashuvi, tuzilishi, mudofaa tizimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yoritilgan. Ayniqsa, shaharlarda paxsa devorlar, sug'orish inshootlari, bozorlar va hunarmandchilik markazlarining mavjudligi vohaning rivojlangan hududlardan biri bo'lganini ko'rsatadi.

Maqolada Blankenagel, Muravyov, Vamberi, Zelenin kabi mualliflarning kuzatuvlari asosida Xorazm shaharlari aholisi tarkibi, ularning turmush tarzi, kiyinish madaniyati va etnik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xiva, Urganch, Hazorasp, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Armini Vamberi, Nikolay Muravyov, Blankenagel.

DESCRIPTION OF KHOREZM CITIES IN FOREIGN SOURCES OF THE 18TH–19TH CENTURIES**Sultonov Husan**

Master's Student, Department of History,

Mamun University, Uzbekistan

Annotation. This article analyzes historical and ethnographic information about the cities of Khorezm in the 18th–19th centuries based on foreign sources, particularly Russian and Hungarian materials. Based on the works of travelers, military personnel, and researchers of that period, the author examines the location, structure, defensive systems, and socio-economic life of the cities within the Khiva Khanate. In particular, the presence of mud-brick walls, irrigation systems, markets, and craft centers in these cities indicates that the region was one of the developed areas.

The article also reveals the composition of the population of Khorezm cities, their lifestyle, clothing culture, and ethnic characteristics based on the observations of authors such as Blankenagel, Muravyov, Vambery, and Zelenin.

Keywords: Khiva, Urgench, Hazorasp, Kungrad, Khojaly, Armini Vambery, Nikolay Muravyov, Blankenagel.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i6v2y2026/n01>**KIRISH**

Xorazmning betakror shaharlari mahalliy, yunon-rim, xitoy, eron, arab, ingliz va rus sayyohlari, harbiylari, lashkarboshilari, shifokorlari, rassomlari tomonidan tilga olingan, ta'riflangan. Vohaning qal'a shaharlariga eng so'nggi to'liqroq ta'riflarni XVIII–XIX asrlarda bu hududga tashrif buyurgan rus mualliflarining asarlaridan topamiz. Zero, davlat topshiriqlari bilan Xorazm yerlariga tashrif buyurgan bu mualliflar o'zlariga berilgan vazifalarni mukammal ado etish uchun borgan hududlarini sinchkovlik bilan o'rganganlar va eng kichik narsalarni

ham e'tibordan chetda qoldirmaganlar. Ayniqsa, Xorazm shaharlari va aholisining etnografiyasi, etnik tarixi masalalari ularning asarlarida asosiy o'rinni egallagan. Albatta, mualliflar o'z zamonasi va taraqqiyot darajasi hamda diniy-ma'naviy dunyoqarashi nuqtai nazaridan tahlil va talqin qilganlar. Ushbu maqolada Blankenagel, Muravyov, Vamberi, Notkin, Zelenin, Nazimov kabi xorijiy mualliflarning ishlaridan parchalar keltirish orqali XVIII–XIX asrlardagi Xiva xonligida mavjud shaharlarning etnografiyasi haqida tasavvur hosil qilish maqsad qilingan.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimli yondashuv hamda qiyosiy tahlil metodlaridan keng foydalanildi. XVIII–XIX asrlarda Xorazm vohasi shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, mudofaa tizimi va etnografik qiyofasini ochib berishda mazkur davrda hududga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar va harbiy olimlarning kundaliklari hamda rasmiy hisobotlari birlamchi manba sifatida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida xorijiy manbalardagi ma'lumotlarni o'sha davrdagi mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va geografik omillar bilan bog'liq holda o'rganishga, manba mualliflarining subyektiv qarashlarini xolis baholashga alohida e'tibor qaratildi.

Maqolaning nazariy-manbaviy asosini tashkil etuvchi adabiyotlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, voha shaharlari tarixiga oid ilk batafsil ma'lumotlar rus harbiylari I. Gladyshev, I. Muravin hamda mayor Blankenagel asarlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, N.N. Muravyovning sayohatnomasi vohaning dehqonchilik madaniyati va savdo aloqalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Majmuaviy va etnografik kuzatuvlar borasida mashhur venger sharqshunosi Armin Vamberining tadqiqotlari alohida ajralib turadi. Keyingi davr va zamonaviy tadqiqotlarida, xususan I.I. Notkin, K. Xudayberganov va M.M. Vohidovlarning ishlarida Xiva xonligi shaharsozligi, me'morchiligi va dinamik rivojlanishi arxiv hujjatlari hamda arxeologik ma'lumotlar asosida chuqurlashtirib o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1740–1741-yillarda Xivada bo'lgan rus harbiylari Gladyshev va Muravinlar Xiva tasarrufidagi 8 ta shaharni eslatib o'tishadi. "Bu shaharlarning har biri 5–6 sajen balandlikdagi paxsa devorlar bilan o'ralgan, ularning atrofi to'la qazilgan kanallar, yana loydan qurilgan kulbalar va o'tovlar joylashgan", deya yozadi mualliflar [6, 21-b.]. Aholining tarkibi haqida so'z yuritilganda, ular o'zbeklarni zodagon va davlat xizmatchilari, sartlarni savdogar va donishmand kishilar ekanligini, ular har doim o'zi bilan xanjar olib yurishlarini ta'kidlab o'tadi. Bosh kiyimlarida ipaksimon parlar bo'lib, fors uslubida tikilgan va rangdor bo'lgan, turli xil toshlar bilan bezatilgan.

1793–1794-yillarda Xiva xonligida bo'lgan rus mayori Blankenagel o'zining xotiralarida Xorazm shaharlari haqida quyidagicha ma'lumot beradi: "Amudaryoning quyilish joyidan yuqoriga qarab shaharlar birin-ketin quyidagi tartibda joylashgan: Qo'ng'iroq, Xo'jayli, Qipchoq, Gurlan, Ambar, Chag'atoy, Shovot, Uyg'ur, Kat, Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Pitnak" [2, 5-b.]. U shaharlarning katta qismi paxsa devor bilan o'ralganligini qayd etar ekan, bu paxsa devorlar juda zaif qurilganligi va uning mudofaa uchun hech qanday ahamiyati yo'qligini ta'kidlaydi. "Bunday qal'alarni atigi 12 funtlik 3–4 ta pushka bilan bir kunda vayron qilish mumkin, aholi esa o'zida bor qurollar bilan bir kungina himoyalana oladi, ammo ish bungacha yetib bormaydi, zero, atrofda ular bilan qiziqadigan kuchli davlatning o'zi yo'q", deydi. Albatta, o'sha davrlarda Xivada hech qanday artilleriya bo'lmagan. O'rta Osiyo shahar-qal'alarining hammasi ham

loydan qilingan paxsa devorlar bilan o'ralgan. Bu holat barcha hududlarda normal hisoblanardi. Blankenagel Xiva devorlaridan ko'ra qum barxanlari xonlikka yaxshi himoya qalqoni bo'la olishligini ta'kidlaydi. Ammo, bu davrning har qanday masalalarida rivojlangan imperiyalar va rivojlanmagan feodal davlatlarni taqqoslab bo'lmaydi. Muallif qo'shin tarkibiga e'tibor qaratarkan, ularning turkmanlar, qoraqalpoqlar, o'zbeklar va sartlardan iborat ekanligini aytadi. Bu yerda eng mohir jangchilar yovmutlar, ulardan keyin qoraqalpoqlar, so'ngra o'zbeklar va eng kuchsizi sartlar, deyiladi. Sartlar bu yerning eng qadimiy egalari bo'lishiga qaramasdan ko'p miqdorda soliq to'laydilar, Irtish bo'ylaridan kelgan o'zbeklar esa bu yerning egalari aylangan, deb yozadi Blankenagel.

Xiva xonligida bo'lgan N.N. Muravyov Xivani etnografik jihatdan ta'riflar ekan, shunday yozadi: "Xonlikning yerlari ajoyib manzarani tashkil qiladi. Hamma yoqda ko'm-ko'k dalalar, serhosil g'allazorlar, ariqlarning bo'ylarida tokzor va mevali bog'lar yashnab turgan, bu yerlarning egalari mo'lchilikda yashaydi. Undiriladigan don-dunning miqdori xonlikning ehtiyojidan ancha ortadi. G'allani qo'shni bo'lgan ko'chmanchi qabilalar, Bolqon, Mang'ishloq xalqlari, qozoq va turkmanlarning bir qismi ulgurji sotib oladi. Xivaliklar yerlarida g'alla hosili juda yaxshi bo'ladi va ko'p qismi bozorga chiqarib sotiladi" [3, 86-b.]. Muallif xonlikdagi shaharlarni sanab o'tarkan, ularni o'zbeklar va sartlar yashaydigan punktlarga ajratib ko'rsatadi.

Aynan Xiva shahri poytaxt sifatida ko'pgina rus sayyohlarini qiziqtirgan. Ularning ko'pchiligi shaharning xaritasini tuzish uchun uni qadam-baqadam aylanib chiqqan va shaharga ta'rif berganlar. Ulardan biri injener Nazimov bo'lib, 1740-yilda Xiva shahrini tasvirlash bilan shug'ullanadi va xaritasini chizadi [4, 10-11-b.]. Uning xaritasidan biz shaharning kirish darvozasi Toshhovli saroyining janubiy-g'arbiy atrofida bo'lganligini bilamiz.

Eng batafsil va qiziqarli ma'lumotlarni 1863-yilda Xivaga tashrif buyurgan A.Vamberining asaridan olamiz. Vamberi Xivani juda qadimiy fors uslubidagi shahar ekanligini ta'kidlaydi. Muallif shaharning etnografik qiyofasini tasvirlar ekan, bu yerdagi eng qadimiy bino bu Hazrati Pahlavon Mahmud maqbarasi ekanligini (400 yillik tarixga ega) ta'kidlaydi. Aholi bu yerga har kuni Qur'on suralarini eshitish uchun talpinadilar, deb yozadi muallif [1, 155-b.]. Ikkinchi asosiy obyekt bu Juma masjidi bo'lib, xon u yerda har juma kuni namoz o'qigan va xutba o'qiladigan joy bo'lgan. Shuningdek, Xon masjidi, Shalikor, Otamurod qushbegi va Qorayo'g'iz masjidleri shaharning asosiy obyektlari bo'lgan. Muallif xonlikda bo'lar ekan, bu yerda Buxoroga nisbatan ta'lim dargohlari, ya'ni madrasalar kamligini ko'rsatib o'tadi. Madaminxon madrasasi fors uslubida qurilganligi va unda 136 ta hujra borligi uni qiziqtiradi. Vamberi butun shaharni ta'riflar ekan, ko'chalar, xon mulozimlarining uylari, kambag'allarning yashash tarzi, talabalar dars mashg'ulotlari, sarbozlarning, soqchilarning vazifalari, sug'orish shoxobchalari va inshootlari ham nazardan qolmagan. Sayyoh Xiva, Urganch va Ko'hna Urganch xonlikning ishlab chiqarish markazi ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Muallif 32 ta aholi yashaydigan punktlarni sanaydi va ularni shahar va qishloqlarga ajratadi. Vamberining nazaridan dehqonchilik ishlari ham chetda qolmaydi. U shahar va qishloqlarni ta'riflar ekan, Gurlanning sholisi, Hazoraspning olmasi, Xivaning anori nihoyatda mashhur ekanligini va ularni jahon bozorida o'z bahosi borligini aytib o'tadi. O'sha paytlarda Xiva shahrida tikilgan choponlar Eron, Hirot va Astrabodda juda qimmat baholangan. Asarda Urganch choponi alohida ta'riflanadi, unga ko'ra ikki xil rangli yo'l-yo'l Urganch choponi jun va ipakdan, ba'zan ikkalasining aralashmasidan tikilgan. Shaharlar haqida ma'lumot berarkan, Vamberi

xonlikning katta shaharlarida haftada 1–2 marta bozor bo'lishligini, aholi bozorlarga juda chiroyli kiyimlarda borishligini, oddiy narsalar uchun ham bozorga borilishini aytadi.

Xiva xonligi aholisining etnik tarkibi ham muallifning nazaridan chetda qolmagan. U xonlikda yashaydigan 32 qabilani sanab o'tadi. Garchi ularning tashqi ko'rinishi, jismoniy tuzilishi turlicha bo'lsa-da, o'zlari turli xil nomlar bilan atalsa-da, hammasi o'zini bitta xalq yoki qabilaga, aynan bir urug'ga tegishlimiz va o'zbekmiz, deb faxrlanadilar, deydi Vamberi [1, 161-b.].

Xorazm shaharlari Vamberi asarida quyidagicha beriladi: Hazorasp Polvon ota kanali bo'yidagi mustahkam qal'a-shahar, bir qancha savdo rastalari bor. Aholisi o'zbek va sartlardan iborat. Xonqa kichik joy, bir necha o'nta savdo rastasi bor. Urganch Xivadan 31 km uzoqlikda, xonlikning eng asosiy shaharlaridan biri. U qachonlardagi to'rtburchakli loy devor bilan o'ralgan. Devorning uzunligi 225 sajén, kengligi 200 bo'lgan va Vamberi davrida uning qoldiqlari saqlanib qolgan xolos. Shaharda 300 ga yaqin loy uylar bo'lib, tartibsiz holatda joylashgan. Shaharda jami 15 masjid va 300 ta savdo rastasi mavjud bo'lib, jami aholisi 2 ming kishi. Bu yerda Xivaning badavlat savdogarlari yashagan va ular faqat savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Boshqa hududdagilar bu yerga faqat biron narsa sotib olish uchun kelishgan. Xitoy bu yerda faqat xonning chordo'qi, bir nechta xususiy uylar joylashgan. Xo'jayli — mustahkamlanmagan shahar, 180 ta uy, 150 ta savdo rastasi tartibsiz va tarqoq holda joylashgan. Qo'ng'irot atrofi bog' bilan o'ralgan, xonning uyi, shahar hokimi va 2 ta yordamchisining uylari, 7 ta masjid, 315 ta savdo rastasi, devorlar bilan o'ralgan bir nechta xususiy uylar joylashgan. Hamma shaharlar, uylar va rastalar bir xil uslubda, loydan qurilgan. Faqat badavlat kishilarning uylari yer maydonining kattaligi va ba'zi bir naqshlari bilan ajralib turadi. Toshidan qurilgan uylar deyarli yo'q. Qurilish materiallari faqat somon-loy, terakdan ishlangan ustunlar, qamish, shox-shabbalardan iborat bo'lgan [5, 125-127-b.].

1842-yilda Xivaga yana bir rus sayyohi topograf G.N. Zelenin rus diplomatlari bilan birga tashrif buyuradi va shaharning xaritasini chizadi. Uning chizgan xaritasi bo'yicha shaharning ko'rinishi noksimon bo'lgan va unda 17 ta masjid, 22 ta mahalla, 260 ta savdo rastasi joylashgan. 1873-yilda Lyusilin, 1905-yilda Rodionov va 1910-yillarda V. Lobachevskiylar ham Xiva shahri ko'rinishini tasvirlaganlar [8, 318-b.].

XULOSA

XVIII–XIX asrlarda Xorazm shaharlari haqida xorijiy, ayniqsa rus va venger manbalarida keltirilgan ma'lumotlar o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shaharsozlik an'analari hamda aholining etnik tarkibini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar orqali Xiva xonligi hududidagi shaharlarning nafaqat geografik joylashuvi, balki ularning ichki tuzilishi, mudofaa tizimi, savdo-sotiq aloqalari va kundalik turmush tarzi haqida ham aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Manbalarda qayd etilishicha, Xorazm shaharlari asosan paxsa devorlar bilan o'ralgan bo'lib, bu o'sha davr shaharsozligining o'ziga xos xususiyati hisoblangan. Shaharlar atrofida kanallar va sug'orish tizimlarining mavjudligi esa vohada dehqonchilik va bog'dorchilik yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Xususan, g'alla yetishtirishning mo'l bo'lishi va ortiqcha mahsulotning qo'shni hududlarga sotilishi Xiva xonligining iqtisodiy jihatdan muhim markazlardan biri bo'lganini ko'rsatadi.

Xorazm shaharlari nafaqat iqtisodiy, balki hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida ham ajralib turgan. Urganch, Xiva va boshqa yirik shaharlar ichki va tashqi savdoda muhim o'rin

egallagan, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xususan, matolar va choponlar boshqa mamlakatlarda ham yuqori baholangan. Bozorlarning muntazam tashkil etilishi va aholining ularda faol ishtirok etishi shaharlardagi ijtimoiy hayotning jonli bo'lganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Москва: Восточная литература, 2003.
2. Замечание майора Бланкеннагеля впоследствии поездки его из Оренбурга в Хиву в 1793–94 годах. Изданы с объяснением В.В. Григорьевым. Санкт-Петербург: В типографии Морского министерства, 1858. (из №3 Вестника Императорского Русского Географического общества в 1858).
3. Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. Москва, 1822.
4. Ноткин И.И. Динамика градостроительного развития Хивы. Архитектура и строительство Узбекистана. 1983. №10. - С. 10–11.
5. Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения. Санкт-Петербург: Типография «Общественная польза», 1873.
6. Rajarov, Mardonbek (2024) Xorazmning arablar tomonidan bosib olinishi manbashunosligining zamonaviy tadqiqot usullari. O'zbekistonda tarixiy manbashunoslikning dolzarb masalalari. ISSN UO'K: 930.255:004(063)(575.1) <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2077>
7. Xitoy manbalarida Afrig'iylar sulolasining yoritilishi. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue, 5 (3). pp. 271-277. ISSN 2181-1415 <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2076>
8. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740–1741 годах Гладышевым и Муравьиным. Санкт-Петербург: Типография Министерства внутренних дел, 1851.
9. Худайберганов К. Хива – дунёдаги энг кўхна қалъа. Тошкент, 2012.
10. Хоразм шаҳарлари тарихи манбалар ва замонавий тадқиқотларда. Тошкент, "Фан" нашриёти, 2024.
11. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. – Buxoro, 2009.

HUMANSIENCES.UZ

№ 6 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com